

**ИПО ХОДИМЛАРИ "ИНСОН ҚАДРИ УЧУН" ТАМОЙИЛИ АСОСИДА  
ДАВЛАТНИНГ YUKSAK МА'НАВИЙ-АХЛОҚИЙ ФАЗИЛАТЛАРГА ЕГА, О'З  
БУРЧИГА СОДИҚ, ВАТАНПАРВАР ВА ХАЛҚПАРВАР ВАКИЛИ ЕТИБ  
ТАРБИЯЛАШ**

**Musurmanov Baxtiyar Kurbanmuratovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka  
oshirish instituti katta o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi "Kodeksining qabul qilinishi va buning natijasida makatimizda ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalashga oid fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'z:** kodeks, inson qadri, ma'naviyat, tarbiya, burch, tamoil, asos, xalqparvar.

**Аннотация:** В данной статье изложены мысли о принятии Кодекса о профессиональной культуре и служебной дисциплине сотрудников органов внутренних дел и, как следствие, о воспитании сотрудников органов внутренних дел на основе принципа "Во имя чести и достоинства человека" высокими духовно-нравственными качествами, преданными своему долгу, патриотичными и заботящимися о народе представителями государства.

**Ключевые слова:** кодекс, человеческое достоинство, духовность, воспитание, долг, принцип, основа, патриот.

**Abstract:** This article presents thoughts on the adoption of the Code of Professional Culture and Service Discipline of employees of Internal Affairs Bodies and, as a result, on the education of employees of internal affairs bodies based on the principle "In the name of human honor and dignity" with high spiritual and moral qualities, devoted to their duty, patriotic and caring for the people by representatives of the state.

**Keywords:** code, human dignity, spirituality, upbringing, duty, principle, foundation, patriot.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga yo'llagan bayram tabrigida: "Hech shubhasiz, xalqimiz sizlarni o'z hayotini el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdek olijanob ishga bag'ishlagan, muqaddas qasamyodiga sodiq insonlar deb biladi va mashaqqatli xizmatizingizni munosib e'tirof etadi" deb alohida ta'kidlagani alohida e'tiborga molik.

Mustaqillik yillarida fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomil - lashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari xodimlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional kadrlar tayyorlash, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash borasida mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Buning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish deb nomlangan" 17-maqsadining 1-kichik xatboshida "ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish" deb nomlangan bandida ham ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan islohotlardan biri desak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoniga muvofiq, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari qatorida, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan "Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish vazifasi belgilangan.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar bo'lajak ichki ishlar xodimlarini yuksak ma'naviy-intelektual salohiyatga ega bo'lgan, bugungi kun talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tarbiyalashga qaratilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda 2017 yil 16 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim poydevor bo'ldi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvar kunidagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

PQ-10 sonli qarori bilan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi" kodeksining qabul qilinishi va buning natijasida makatimizda ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish, ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish, ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olishga yo'naltirilgan maqsadlar belgilab berildi.

Ushbu Kodeksning tarbiyaviy yo'nalishlarda quydagi vazifalarni qamrab oladi.

Birinchidan;

- ichki ishlar organlari xodimlarining davlatchilik, vatanparvarlik, qasamyodga sodiqlik, ichki ishlar organlari xodimining kasbiy muomala madaniyati talablariga rioya qilish asosida davlat-huquqiy dunyoqarashini shakllantirish;

- ichki ishlar organlari xodimlarida qonun ustuvorligi va xizmat intizomiga rioya etish, tezkor va xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga safarbar etish;

- xalqning tarixi, madaniyati, tili va an'alariga hurmatni tarbiyalash;

- ichki ishlar organlari xodimlarini o'zlarining xizmat vazifalarini ongli ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni, shu jumladan o'ta og'ir sharoitlarda xizmat qilish qobiliyatlarini shakllantirish;

Kodeksda xizmat intizomi har bir xodim zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklab berildi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga amal qilish, IIVning normativ hujjatlari talablarini qat'iy bajarish;

ichki ishlar organi xodimining qasamyodiga sodiq bo'lish, faqat va faqat xalq va davlat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat bo'lgan o'z xizmat burchini so'zsiz bajarish;

fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilish;

o'ziga yuklatilgan xizmat vazifalari va funktsional majburiyatlarini samarali amalga oshirish;

ishonib topshirilgan tabel quroli, mol-mulk va texnikani asrab-avaylash;

hushyor bo'lish, davlat va xizmat sirini qat'iy saqlash;

murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish;

xodimlar o'rtasida o'zaro munosabatlarga oid qoidalarga amal qilish, boshliqlar va hamkasblarni hurmat qilish;

xizmat guvohnomalarini saqlash va foydalanish tartibiga qat'iy rioya etish, ulardan xizmatga aloqador bo'lmagan holatlarda foydalanmaslik, shu jumladan, xizmat guvohnomasini ko'rsatib, mavqeini suiiste'mol qilmaslik;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.01.2025 yildagi "2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalashda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur qaror mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilingan bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xizmat olib borishini, Respublika mahallalarini xavfsiz xududga aylantirilishini ta'minlovchi huquqiy asos hisoblanadi. Zero, aholining xavfsiz xududda yashashi, o'zining ijtimoiy xavli qilmishdan himoyalanganligini xis qilishi ularning shu sohadagi davlat siyosatiga bo'lgan, qolaversa ichki ishlar organlari xodimlariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida jinoyatchilikka qarshi kurash, har bir mahalla kesimida jinoyatlarni oldini olish tizimi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar aniq belgilab berilgan bo'lib, ushbu chora-tadbirlarning to'liq ijrosini ta'minlash, belgilangan vazifalarni manzilli ravishda amalga oshirish ichki ishlar organlarini xalq uchun xizmat qiluvchi professional tuzilmaga aylantirilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorda mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish, mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha har bir mas'ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat'iy so'rov tizimini yo'lga qo'yish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralari ko'rib borish vazifasi aniq belgilab berilgan. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlarining o'z xizmat vazifalarini sidqidildan amalga oshirish, jinoyatchilikka qarshi murosasiz munosabatda bo'lish, ichki ishlar organlari xodimlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, har bir xodimning xalq oldida hisobdorlik xissi asosida xizmat olib borishini ta'minlaydi.

### **XULOSA**

Jahondagi bugungi murakkab vaziyat ichki ishlar organlari xodimlaridan zimmlariga yuklatilgan tinchlik va osoyishtalikni asrashdek o'ta mas'uliyatli va sharaflil vazifani kecha-yu kunduz fidoyilik va vijdonan ado etishni talab etadi.

Sohada amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida o'tgan qisqa davrda yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari xodimlari – Vatanimizning asl o'g'lonlari sifatida

zamonaviy bilimlarni egallagan, ma'naviy va ma'rifiy dunyosi boy, har qanday xavf-xatarga qarshi matonat bilan kurashishga tayyor, xalqimizning chin ma'nodagi himoyachilariga aylanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida bunday yutuqlarga erishishda ichki ishlar organlari, uning asosiy vazifalarini bajarish bo'yicha faoliyat olib boruvchi sohaviy xizmatlarning o'рни nihoyatda katta.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. [хтtps://lex.uz/doss/6445145](https://lex.uz/doss/6445145).
2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2016. – № 38. – 438-м. [хтtps://lex.uz/doss/3027843](https://lex.uz/doss/3027843).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60- сон Фармони. [хтtps://lex.uz/doss/5841063](https://lex.uz/doss/5841063).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 20-январь кунидаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-10 сонли қарори. [хтtps://lex.uz/uz/doss/6364837](https://lex.uz/uz/doss/6364837).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.01.2025 йилдаги “2025 йилда Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сон Қарори. [хтtps://lex.uz/doss/7330260](https://lex.uz/doss/7330260).
6. Ички ишлар органлари фаолияти: ИИВ академик лицейлари учун дарслик / М.З. Зиёдуллаев, Ж.С. Мухторов, Б.И. Эгамбердиев М. Д. Миразов, ва бошқ.; Масъул муҳаррир И. Исмаилов, У.Э.Фозилов билан ҳаммуаллифликда; – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2023.